

Date: 23<sup>rd</sup> October-2025

**FIRIBGARLIK JINOYATLARINING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH.**

**Roziqov Shohijahon Dilmurod o'g'li**

(Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Tashkiliy boshqarma Tezkor boshqaruv  
markazi. Kuch va vositalarni boshqarish guruhi katta inspektori)

**Kalit so'zlar:** Viktimologik profilaktika, firibgarlik, victim.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun mohiyatiga aylangan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat va jamiyatning bosh maqsadi deb e'tirof etilayotgan bir sharoitda jamiyatda so'nggi paytlarda fuqarolarni aldash yoki ishonchini suistemol qilish yo'li bilan mulki yoxud mulkiy huquqini qo'lga kiritish holatlari ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda firibgarlik turli shakllarda – moliyaviy qalbakilik, internet firibgarligi, sug'urta firibgarligi kabi ko'rinishlarda keng tarqalgan. Ushbu faoliyatlar aksariyat davlatlarda qonun bilan qat'iy tarzda jazolansa-da, ammo yildan yilga oshib bormoqda. Shu maqsadda fuqarolarimiz uchun firibgarlik, aldash va ishonchni suiiste'mol qilish tushunchalari yuridik tilda qanday ma'no anglatishi, ularning farqlari, ushbu turdagi jinoyatlar uchun qanday jazolar borligi haqida ma'lumot berishni lozim topdik. Firibgarlik jinoyati— qtisodiyot sohasidagi jinoyatlar jumlasiga kirib, jinoyat kodeksining 168-moddasida ushbu jinoyatga ta'rif berilgan. Unga ko'ra firibgarlik, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqini qo'lga kiritishdir. Demak, o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini yuqorida ko'rsatilgan ikki usulni qo'llab, tekin qo'lga kiritgan, 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday shaxs firibgarlik jinoyatini sodir etgan shaxs sifatida huquqni muxofaza qiluvchi idoralar tomonidan jinoiy ta'qibga uchrashi mumkin. Bunda, jinoyat ishi qo'zg'atish uchun asos bo'luvchi zarar summasi oz miqdordan, ya'ni eng kam oylik ish haqining 30 barobaridan ko'p bo'lishi kerak. Agar firibgardan jismoniy shaxs jabrlangan bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atish uchun talon-toroj qilingan mulk summasi ahamiyatga ega emas. Endi aldash va ishonchni suiste'mol qilish tushunchalariga kelsak. Aldash deganda aybdor tomonidan jabrlanuvchining mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqlarini qo'lga kiritish maqsadida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlardan foydalanish yoki mulk egasi bilishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish tushuniladi. Masalan, aybdor avtosalonda ishlansa-da, mashina olib berishni va'da beradi, jabrlanuvchini o'zining gaplariga ishonirish maqsadida soxta shartnoma yoki boshqa hujjatlarni ko'rsatadi. Ishonchni suiiste'mol qilish — aybdorning mulk egasi bilan o'rtasidagi ishonchli munosabatlaridan g'arazli maqsadlarda foydalanishdir. Agar shaxs (shu jumladan mansab vakolati yo'qligi yoki o'z xizmat mavqeyidan foydalana olmasligi tufayli muayyan harakat (harakatsizlik)ni aslida amalga oshira olmaydigan mansabdor shaxs), go'yoki mansabdor shaxsga pora sifatida berish uchun pul yoki boshqa qimmatliklarni olib, biroq aslida bunday niyati bo'lmasdan, ularni



Date: 23<sup>rd</sup> October-2025

o'zlashtirsa, qilmish firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Ishonchga turli holatlar, masalan, aybdor shaxsning xizmat mavqeyi yoki uning shaxsiy yoki qarindoshlik munosabatlari sabab bo'lishi mumkin. Masalan, qo'shnisini mehnat migratsiyasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotda ishlashini bilgan fuqaro chet elga ishga yuborishga yordam so'rab murojaat qiladi. Garchi qo'shnisida bunday vakolat bo'lmasa-da, u ishonchni suiiste'mol qilib, chet elga yubora olishini aytib, uning pul mablag'larini qo'lga kiritadi. Yana shunga ham e'tibor qaratish lozimki ushbu jinoyatlar sodir etilishida jabrlanuvchi ya'ni viktin ma'lum bir toifadagi shaxslardan iborat bo'lishi mumkin. Ya'ni jamiyatdagi qatlamlar bo'lishi nafaqaxo'rlar, muomila layoqati bo'lmagan shaxslar. Bu esa viktinologik profilaktika rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Bunda viktinologiyaning asosiy vazifalaridan biri jinoyatlarning qurbonlarga aylanish ehtimolini oldini olishdir. Demak jamiyatimizda shaxslarning ushbu jinoyatlar qurboni bo'lishiga sabab va shart-sharoitlarini o'rganish lozim. Huquqbuzarliklar profilaktikasi barcha shakllari, turlari, usullaridan samarali foydalanish lozim. Huquqbuzarliklarning viktinologik profilaktikasi qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Ammo so'nggi yillardan OAV va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanayotgan bir paytda jinoyatlarning yangicha ko'rinishi turi, shakli paydo bo'lmoqda shu bilan birga firibgarlik jinoyatlari ham fuqarolar orasida turli xil raqamlardan yaqin qarindoshlarining ovozi shaklini o'xshatib bundan tashqari turli xil ilovalar orqali himoyalangan plastic kartalardan pul yechib olish kabi holatlar qulog'imizga ko'p chalinmoqda. Bu esa yuqorida aytib o'tilgan profilaktika chora-tadbirlarini samarali, yuqori sifat darajada foydalanish lozimligini talab qilmoqda. Bizning fikrimizcha huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar ularning vakolatlarini oshirib, tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Har bir fuqaro ongida huquqiy immunitetni shakllantirish lozim. Hozirgi kunda rivojlanayotgan ijtimoiy tarmoqlar, teledasturlar, radio eshitirishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi hozirda global dunyoda shakllangan Z avlod asosiy auditoriya markazida internet tarmoqlari alohida o'rin tutayotganligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yoshdagi shaxslar **huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lganlari bilan manzilli profilaktik dasturlar olib boorish lozim. Avvallo huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs deganda** — o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxsni tushunmoq lozim.

#### REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi // <https://www.lex.uz/docs/6445145>;
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi // <https://www.lex.uz/docs/111460>;
3. "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ 515-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni // <https://www.lex.uz/docs/4159913>;



Date: 23<sup>rd</sup> October-2025

4. “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni // <https://www.lex.uz/docs/2107763>;
5. “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-442-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni // <https://lex.uz/docs/3328284>;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>;
7. Huquqbuzarlik profilaktikasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.05.2014 yildagi O‘RQ-371-son

